

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA TERMINLAR TADQIQOT TENDENSIYALARI

Yuldashev Munavvarovjon o'gli,
Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti doktoranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.043>

Annotatsiya: Terminologiya maxsus bilim sohasi sifatida tadqiqotchilar e'tiborinitobora ko'proq o'ziga jalb qilyabdi. Ushbu hodisa, o'zining xalqaro ahamiyati va ijtimoiy-madaniy sohalarining turli yo'nalishlarida zamonaviy ilmiy bilimlarning tabiatida hamda o'zaro integratsiyasida til to'siqlarini bartaraf etish va natijada atamalarni birlashtirish istagi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda atamashunoslikni ilmiy diskurs jihatdan o'rganish dolzarb muammoligicha qolyapti. Termin- bu til hodisasi sifatida, o'zining rivojlanish tarixida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan va har bir olim esa o'zlarining talqinida ushbu til hodisasini o'rganib chiqib, ko'p sonli tadqiqot ishlarida har bir olim o'zining ma'lum bir fikrga ega bo'lib kelgan.

Kalit so'zlar: terminlar, sohalararo terminlar, polisemiya, sinonimiya, qiyoslash.

ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ ТЕРМИНОВ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Юлдашев Мирмухсин Мунавварджон угли,
докторант Кокандского государственного педагогического института

Аннотация. Терминология как специальная область знания привлекает все большее внимание исследователей. Это объясняется международным характером современных научных знаний, вызванным процессами интеграции и, как следствие, стремлением к унификации терминов как пути преодоления языковых барьеров в разных сферах социально-культурной деятельности. В настоящее время изучение терминологии с точки зрения научного дискурса остается актуальной проблемой. Термин как лингвистическое явление изучался многими учеными за историю его развития, исследуя это языковое явление каждый учёный имел свою определенную точку зрения.

Ключевые слова. Термины, междисциплинарные термины, полисемия, синонимия, сравнение

TRENDS IN TERM RESEARCH IN MODERN LINGUISTICS

Mirmukhsin Yuldashev Munavvarjon ugli doctoral student of the Kokand State
Pedagogical Institute

Annotation. Terminology as a special field of knowledge attracts all more attention from researchers. This is due to the international the nature of modern scientific knowledge, caused by the processes integration and, as a result, the desire for the unification of terms as a way overcoming language barriers in various areas of socio-cultural activities. Nowadays, the study of terminology from the point of scientific discourse remains as an actual problem. The term as a linguistic phenomenon has been studied by many scientists over its history and each scientist had his own scientific point of view to this linguistic phenomenon.

Key words: Terms, interdisciplinary terms, polysemy, synonymy, comparison.

N.V. Podol'skaya, N.V. Vasilyev, V.P. Danilenko, V.M. Gryaznovoy, T.L. Kandelaki kabi tilshunoslikning zamonaviy tadqiqotchilar fikriga ko'ra, hozirgi zamon terminologiyasi - bu sun'iy shakllangan leksik qatlam bo'lib undagi har bir bo'lak foydalanish uchun, ma'lum bir

cheklovga hamda mavjud bolishi va rivojlanishi uchun optimal sharoitga ega. Har bir atama, maxsus leksik birlik sifatida, ma'lum bir bilim sohasiga aloqador bo'lib bizning tadqiqotimizda bu lingvistik terminlar bo'ladi. Atamashunoslik sohasidagi tadqiqotlar va nazariyasi haqida gap ketganda odatda biz A.A.Refortmaskiy, G.O.Vinokur, V.V. Vinogradov, V.P.Danilenko, V.M. Leychik, D.S. Lottelarni ilmiy ishlari va tadqiqot natijalari ko'z oldimizga keladi. Atamashunoslikning tilshunoslikda muammolarini jadallik bilan o'rganish XX-asrning 20-30-yillariga to'g'ri keladi.

Termin so'zi va unga bo'lgan talablar hali ham munozarali bo'lib kelmoqda, chunki ko'p tilshunoslar o'zining tadqiqot ob'ektiga qarab terminga turli xil ta'riflar beradi. Termin- bu Golovin va Kobrin fikriga ko'ra har doim professional fikrlash va maxsus-professional aloqa vositasidir [1]. V.M. Leychik tomonidan ham shunga xuddi shunday talqinini topsak bo'ladi: «Termin-bu ma'lum bir tilning ma'lum maqsadlar uchun leksik birligi; nazariyaning umumiy-konkret yoki mavhum-tushunchasini bildiruvchi ma'lum bir maxsus bilim yoki faoliyat sohasining tushunchasi hisoblanadi» (Leychik, 1989, 16-17). Termin uchun ta'riflarga kelsak, vaqt o'tishi bilan ular o'zgarib boryapti, lekin D.S.Lotte ilgari surgan mulohazalar umumiy qabul qilingan qoidalarsifatida qolyapti:

1) Termin- element sifatida, terminologik ma'no va atama yaratish jarayonida minimal birlikdir

2) Ta'biy shakllangan terminlarda ma'lum bir «kamchiliklari» bo'lishi

3) Terminlar tavsifida, bir ma'nolikning «mutlaq» va «nisbiy» darajalari farqlanishi

4) Avvalo, termin va atamalarning tasnifini to'g'ri tuzilishiga e'tibor qaratish lozim, chunki ularning umumiy tuzilishidan sohaviy terminologiyalar shakllanadi.

5) Xar termin ham, albatta biror sohada muayyan ma'noga ega bo'lib, biror predmetni yoki tushunchani ifodalashi hamda uning sohadagi omonimi yoki sinonimi bo'lmasligi;

6) Mavjud yoki yangi shakllangan terminlarni «xususiy» (semantik), yoki qaysi tarmoqqa oidligini mufassil tasnifiga ega bo'lishi lozim.

8) Ko'p sonli ilmiy ishlarni bajarilganligiga qaramay hozir ham termin va atamalarga doir tilshunoslikdagi dolzarb muammolar hali ham o'z yechimini topgani yo'q, shuning uchun terminlarni tilshunoslik hodisasi sifatida tadqiq qilinishi davom etishi kerak.

Bizning tadqiqotimizning asosiy vazifasi terminlar tadqiqini lingvistik mohiyatini aniqlashdan iborat, shuning uchun tobora dolzarb ahamiyatga ega bo'lish jarayonidagi asosiy muammolarga e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy tilshunoslikda atamani o'rganish jarayonida ikkita asosiy yondashuvlar qo'laniladi: normativ (me'yoriy) va deskriptiv (tasvirlovchi). Normativ yondashuvda atama muayyan turdagileksik birlik sifatida qaraladi va uning maxsus semantik va grammatik tuzilishga egaligi va adabiy til so'zlaridan ajratilgan holda qaraladi. Normativ (standart) yondashuv tarafdorlari (Lotte, Reformatskiy, Siforov, va Kandelaki, Kiyak, Tatarinov) atama uchun standart talablarni ilgari surdilar: va shu jihatdan atama, mohiyatan bir ma'noli, aniq, tizimli, mazmun jihatidan ixcham va sinonimlari bo'lmasligi tushuniladi. Termin-til tizimida ularning fikriga ko'ra turg'un element hisoblanadi [2].

Terminlarni deskriptiv yondashuv yordamida o'rganish tarafdorlarning (Danilenko, Vinokur, Golovin, Kobrin, Krilov, Pekarskaya, Kobrin va Gerd) fikriga ko'ra, termin-bu maxsus so'z emas balki maxsus vazifaga ega bo'lgan so'z deb ta'riflanadi. Bundan ko'rinib turibdi-ki har qanday so'z ham termin bo'la oladi, terminlar esa o'z navbatida oddiy so'z sifatida ishlatilishi mumkin. Termin va so'zning o'rtasidagi farq, ularning leksik xususiyatida emas balki semantik vazifalari bilan farqlanadi. Termin-bu til birligi bo'lib, har qanday vaziyatda ham o'zining moslashuvchanligi bilan tilning qonunlariga buysunadi va ayrim hollarda ko'p ma'noli leksik birlikka aylanishi mumkin, muayyan holatlarda antonym va sinonimlarga ega bo'lishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlar, terminlarni o'rganishda deskriptiv yondashuvni to'g'riligini isbotlaydi, chunki terminlarda oddiy adabiy leksika kabi ko'p ma'nolik, omonimiya, sinonimiya kabi

hodisalar uchraydi va bu o'z navbatida uning bir ma'nolik va aniqlik xususiyatlarinin ma'lum darajada pasaytiradi. Zamonaviy terminologik tadqiqotlar, ko'p hollarda xorijiy tillardan kirib kelgan va bizning tilda faol tarzda qo'llaniladigan terminlarnihamda ularni struktur-semantik funktsional xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganish odat tusiga kirgan. (Kravchenko, 2000; Bagova, 1999) va ularni derivatlarini o'rganish esa Refotmatskiy (1968) tomonidan olib borilgan. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, terminologiyani shakllanishi to'gridan-to'g'ri fanlar tarraqiyoti bilan bog'liq. Ilgari mavjud bo'lmagan, yangi paydo bo'lib hozirgi kunda esa yetarlicharivojlangan sohalar tufayli yangi terminologiyani paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bois ilm-fanda terminlar yaratish muammolariga yangi yondashuv vujudga kelmoqda, bunda barcha terminologiya yaratilishi hamda atamalarning shakllanish usullarineologiya prizmasi orqali ko'rib chiqiladi va neologiyani har xil turlarini aniqlashko'zda tutiladi. N.V. Podol'skaya, N.V. Vasil'yeva va A.V. Superanskoylarni fikriga ko'ra ushbu yondashuv termin va atama uchun yangi biror hodisa yoki narsani belgilash uchun to'g'riligini ta'kidlashadi (Superanskaya, Podol'skaya, Vasil'yeva, 1989,197).

Agar ilgari, yangi terminlarni o'rganish jarayonida, termin paydo bo'lishida qaysi tildan kirib kelgani to'g'risida faqat bitta savol qo'yilgan bo'lsa, tilshunoslikdaatama va terminlarni paydo bo'lishi, uning tildagi funktsional vazifalari, tilning tarixiy rivojlanishning asosiy tendentsiyalariga muvofiq til qonuniyatlariga to'g'ri kelish yoki kelmaslik masalasini ko'tarish yo'q edi. Hozir esa har bir terminning manbasi to'g'risidagi savol o'rtaga kundalang tashlanib, yangi terminlar shakllanish qonunlariga rioya etilishi, tilning struktur xususiyatlariga muvofiq o'rganish olib borilmoqda (Gerd, 1971, 14; Lotte, 1994, 77). Yangi termin va atamalarning paydo bo'lishiga yangi fan tarmog'i yoki biror ilmiy yutuqlarga erishish kabi ekstalingvistik omillar sabab bo'layotganini ko'rish mumkin (Buyanova, 2002, 4). Shunday holatlarda ekstralingvistik omillar ona tililmizga boshqa tildan o'zlashma termin sifatida dastlabki til-manbadagi tushuncha bilan birga kirib keladi (Tatarinov, 1994, 20). Misol uchun: autsayder (outsider)- «sportdagi nisbatan kuchsizroq jamoa»; tender (tender) - « xalqaro ochiq tijorat tanlov».

XXI asr boshida terminga nisbatan bo'lgan ilmiy qarash tubdan o'zgarimoqda, misol uchun: terminlar hozirgi kunga kelib ma'no jihatdan zamon o'zgarishlariga bo'ysunuvchan, ba'diy unsurdan va emotsional bezaklardan holi, termin bu-ilm vakillarining muloqot vositasi deb e'tirof etilmoqda.

Terminologik leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zlarni turli tavsiflarga bo'lish mumkin. Misol uchun maxsus ma'noga ega so'zlarni solishtirish an'ana tusiga kirgan. Misol uchun termin va nomenklaturani olsak: Termin va nomenklatura qanchalik bir-biriga yaqin bo'lmasin, baribir ular o'rtasida mantiqiy farq mavjud. Misol uchun terminlar konseptual xarakterga ega bo'lib, u fan yoki maxsus kasb doirasidan chiqib ketib, tilning umumtil leksikologiyasi bilan qorishib, integrallashib ketishi mumkin bo'lsa, nomenklatura aniqlashtiruvchi va aniqlik kirituvchi (konkretlashtiruvchi) xarakterga ega va termindan farqli ularoq matnning har qanday turida ham o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotmaydi. Termin va nomenklaturani bir-biridan ajratish bo'yicha G.O.Vinokur, S.V.Grinev, G.A. Dianov, B.N.Golovin, A.V. Superanskaya, R. Yu. Kobrin, G.P. Melnikov, ilmiy ishlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Termin va nomenklaturanikeng miqosda bir-biridan ajratish G.O.Vinokur tomonidan ilk bor «Rus texnik terminologiyasining ayrim hodisalari haqida» taklif qilingan. Unda nomenklatura deb predmetlarni maksimal darajada qulay abstrakt hamda shartli tushunchalar bilan belgilash, termin uchun esa, ichki ma'noli shaklga ega bo'lish muhim. Bunday qarash ko'pgina lingvistik adabiyotlarda muhokama qilingan hamda termin va nomenklatura orasidagi chegirmani aniqlashdek muhim masala o'rtaga qo'yilgan.

A.A. Reformatskiy terminologiya hamda nomenklaturani bir-biridan shunday farqlar edi: «terminologiya eng avvalo ma'lum bir fanning tushunchalar tizimi bilan bog'liq bo'lsa,

nomenklatura esa uning ob'yektlarini yorliqlaydi, nomenklatura shunday qilib fanning tushinchalari bilan to'g'ridan-tog'ri bog'lanmagan. Nomenklatura fanning tushunchalar tizimida fan niqtai nazaridan bilimni butunlay qamray olmaydi». Terminlar fanning tushunchalarini so'z orqali namoyon qilishi orqali hat bir fanga yoki yo'nalish uchun alohida terminlar qo'llaniladi.

O'zbek olimlari orasida D.Saidqosimova, o'z ilmiy ishlarida, o'z funksiyasi bo'yicha terminga juda ham o'xshab ketadigan nomenklatura atamasining alohida differensial belgilarga to'xtaladi, «Nomenklatura -bu turli narsalarga mos nomlar to'plami bo'lib, ular terminologiyaga bog'liq, tushunchalar tizimi haqida emas, balki unsurlarning toafovutlari va tartibi haqidagina ma'lumot beradi. Xilma-xil til turlariga xos nomenklaturaga oid ifodalarni o'zida mujassam etgan leksik-semantik guruh tarkibi o'ziga xos bo'ladi. Masalan, hujjatlar, sytlar, bolglar, obyektlar, internet belgilarini o'z ichiga oluvchi tushunchalar nomlari va boshqalar» [3].

D.Kadirbekova faqat bitta obyektga tegishli individual tushunchani nomen deb, ikki yoki undan ko'p obyektga anglatga tushunchani umumiste'moldagi tushuncha hisoblab, maxsus til doirasida ularning termin ekanligini yozadi [4].

Hamma tilshunoslar ham nomenklaturani birlik sifatida terminlarni esa umumiy tushuncha sifatida hisoblamaydi. Misol uchun V.M.Leychikning fikriga ko'ratermin ham nomen ham abstrakt tushunchalarni anglatsada, nomenklatura aloxida xususiyatni bildiradi, aloxida xususiyatni u bir toifadagi tushunchalarningbirlamchi emas, balki ikkilamchi xususiyatlaridagi farqlari orqaligina ajratadi.

Shunday qilib ko'plab tilshunoslarning fikrlarini umumlashtiradigan bo'lsak: Terminlar qaysidur jihatlar bilan bir turga aloqador ko'plab tushunchalarni umumiy xususiyatlariga aniqlik kiritisa, nomenklatura esa tushunchani boshqa obyektlar, hodisalar, munosabatlar bilan bog'lamaydi. V.A.Tatarinov aytganidek: «termin- tushuncha haqida abstrakt ma'lumot bersa, nomenklatura esa yuqori aniqlik bilan ma'lumot berishi bilan farqlanadi.

Nomen ilmiy taffakurning eng boshlang'ich qismida tug'iladi hamda biror ilmiy tushunchani amalda qayd qilinib borishida yuqori ahamiyatga ega. Terminologiyani shakllanib borishi hamda rivoj topishi ko'pincha nomenlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Lekin nomenlar tilda uzoq muqimlikka ega emas, chunki insoniyat tomonidan yaratiladigan buyum-narsa qisqa fursatda ulkan o'zgarishlarga yuz tutadi, va nomenklatura katalogi ham shu boradi yangilanib boradi. Tilda termin doimiy faoliyat olib boradi, qachongacha u ilmiylikini yo'qotsa yoki boshqa bir terminga qarama-qarshi kelsagina ikkilamchi rolga o'tishi mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, termin ko'pincha muomaladan chiqib ketmaydi, balki yanada yangi mazmunga va tarkibga ega bo'laveradi. V.A. Tatarinovning fikricha nomenlar terminosistemaning eng quyi bo'g'ini bo'lib, terminlar o'z navbatida terminositemada denotativ noaniqlikka ega bo'lishi mumkin, ya'ni termin predmet haqida nisbatan mavhum talqinberishi, talqin yakdillika ega bo'lmasligi munker, sababi termin biror predmetni umumiy tasvirini yoki ta'rifini berish bilan chegaralanadi.

Terminoleksikada yana bir asosiy o'rinni professionalizmlar yoxud umumtil terminlari egallaydi. Odatda bunday terminlarprofessional terminlarni barcha yig'indisi emas balki professional terminlarni umumtil leksikologiyasida keng tarqalganlarigina tushuniladi.S.V. Shelov o'zining ilmiy ishida ta'kidlashicha: terminlar va professionalizmlar o'rtasidagi xal qiluvchi tafovut shundaki: terminlarga «rasmiylik», «qonuniylik» omillari yuqori darajada bo'lsa, professionalizmlarga esa «norasmiylik» «qonuniyatga bo'ysinmaydigan» ta'riflar bersa bo'ladi [5]. Terminologlar professionalizmlarga turlicha yondashadilar: ayrimlari professionalizmlar mavjudligiga qarshi ham chiqadi (E.A. Natanson,1966), boshqalar esa professionalizmlarni tilni boyituvchi leksik resurs hamda, professionalizmlarni tilda faoliyat olib borishini kuzatish, til tadqiqotida ulkan material yig'lishini ham ta'kidlashgan. (Danilenko 1977, Petushkov 1995, Superanskaya 1989, Tatarinov 1996). Misol uchun V.P.Petushkov (1995)

umumtil professionalizmlarni paydo bo'lishga qarshi chiqqan, unki umumtil professionalizmlar umumtil matnlarda yoki nutqda huddiki ilmsiz inson mutaxassislar ishlatigan so'zlarni ishlatgan holda soha mutaxassislariga tenglashmoqchi bo'lgandek go'yo. Uning takidlashicha: «Har bir zamonaviy ilmiy-texnikaviy subtil «intelektual salohiyat» darajasidan qat'iy nazar o'zining umumtiligiga egadir, bunday leksik plastni mavjud bo'lishi har doim ham qat'iy mantiqqa bo'ysunavermaydigan, inson tafakkurining murakkab xususiyatlariga bog'liqdir. Termin va professionalizmlar o'rtasidagi tafovutni ajratish uchun ishonchli mezonlar bo'lmagani uchun ba'zi terminologik lug'atlarda umumtil professionalizmlar huddiki termin deb tanishtiriladi. S.V.Grinev ushbu hodisotga quyidagicha izoh beradi: Termin va professionalizmni bir-biridan ajratdigan yagona mezon bu- professionalizmning termindan farqli ularoq cheklangan hollardagina matn va nutqda qo'llanilishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kadirbekova D. K. Cross-cultural Approach to the Study of Terminological Units in the System of Information Technologies //Eastern European Scientific Journal. – 2016. – №. 2.
2. Яковенко И. Образование новой России // Новая газета. – 2012. – 16 марта.
3. Saidqodirova D.S. Ingliz va o'zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi: Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri (PhD) diss.Toshkent, 2019.B.15-16.
4. Kadirbekova D. Inglizcha-o'zbekcha axborot texnologiyalari terminologiyasi va leksikografik masalalari: Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri dis.-Toshkent, 2017.-B.15
5. Шелов С.Д. Терминология, профессиональная лексика и профессионализмы (К проблеме специальной лексики) // Вопросы языкознания. - М.,1984.-№5.-с.76-87.